

## **“BEHBUDIY IZDOSHLARI” ILMIY VA IJODIY ISHLAR TANLOVI**

Har ikki jamiyatda muqaddas matnlar orqali axloqiy qadriyatlar oilaviy muhitda bola ongiga singdiriladi, bu esa tilni axloqiy me’yorlarni yetkazuvchi kuchli ijtimoiy vosita sifatida tasdiqlaydi. Tadqiqot davomida Bernstein, Gee, Hess kabi olimlarning nazariyalari asosida tilning axloqiy tarbiya vositasi sifatidagi roli mustahkamlandi.

Xulosa shuki, muqaddas matnlar lingvistik strategiyalar orqali madaniy qadriyatlarni uzatishda samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi. Shu bois, zamonaviy tarbiya tizimida til vositasida berilayotgan axloqiy tamoyillarni chuqurroq o‘rganish, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni uyg‘unlashtirish dolzarb ilmiy va amaliy vazifadir.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

1. Bernstein, B. (1971). *Class, Codes and Control: Theoretical Studies Towards a Sociology of Language*. London: Routledge & Kegan Paul.
2. Gee, J. P. (1996). *Social Linguistics and Literacies: Ideology in Discourses*. London: Routledge.
3. Hess, D. (2015). Religious Texts and Moral Development in American Families. *Journal of American Studies*, 49(2), 65–80.
4. Jalaluddin, N. H. (2013). Linguistic Strategies in the Quranic Moral Discourse. *Journal of Islamic Studies*, 24(3), 55–68.
5. Qurbonova, T. (2020). Oila tarbiyasida diniy-didaktik nutqning lingvistik xususiyatlari. *Filologiya masalalari*, 2(7), 112–118.
6. Redjepov, G. (2018). Qur’on va milliy tarbiyada axloqiy qadriyatlarning lingvistik talqini. *Markaziy Osiyo tilshunosligi jurnali*, 3(4), 77–83.
7. Biblegateway.com – Online Bible in English, multiple versions.  
Mavjud: <https://www.biblegateway.com>
8. Quran.com – The Noble Qur’an with multiple translations.  
Mavjud: <https://quran.com>
9. Christianity.com – Resources on Bible study, Christian living, and theology.  
Mavjud: <https://www.christianity.com>

### **MOTIVATSIYA EMAS, INTIZOM YETISHMAYAPTI: NEGA ORZULAR YONMAYAPTI?**



**Mamadjonova Gulira’no Muhammad Ali qizi** — 2006-yilda Namangan viloyatida tug‘ilgan. Hozirda Toshkent shahridagi Millat Umidi universitetining Ingliz tilini o‘qitish yo‘nalishida 2-bosqich bakalavriat talabasi. U ingliz tilidan B2 sertifikatga ega bo‘lib, adabiyot, tarjima va xorijiy tillarga chuqur qiziqadi.

*Gulira’noning birinchi xalqaro maqolasi Misrda chop etilgan “O‘zbekistonni ilhomlantiruvchi ovozlari” nomli to‘plamda e’lon*

## **“BEHBUDIY IZDOSHLARI” ILMIY VA IJODIY ISHLAR TANLOVI**

*qilingan. U o‘z izlanishlarida til o‘rganish madaniyatini chuqurlashtirish, yosh avlodni fikrlashga undash va xalqaro maydonda o‘zbek yoshlarining ovozi eshittirishga intiladi.*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada motivatsiyaning vaqtinchalik va o‘zgaruvchan tabiatiga nisbatan, intizomning uzoq muddatli muvaffaqiyatdagi roli yoritiladi. Yoshlar orasida keng tarqalgan “ilhom tushsa harakat qilaman” yondashuvining nojo‘ya oqibatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, intizomli odatlar orqali natijaga erishish yo‘llari amaliy tavsiyalar bilan ochib beriladi. Maqola inson psixologiyasi, o‘zini rivojlantirish nazariyalari va zamonaviy ijtimoiy muhitga tayangan holda yozilgan bo‘lib, chinakam o‘zgarishlarga olib keluvchi qat’iyatli pozitsiyani targ‘ib qiladi.*

### **Qachon motivatsiya yolg‘on gap bo‘lib qoladi?**

“Sevgan ishingni qil, kuchayib ketasan” — zamonaviy motivatsiya maktabining eng ko‘p takrorlanadigan jumlasidir. Ammo bu ibora har doim ham ishlamaydi. Nega? Chunki sevgan ish ham zeriktiradi. Ba‘zan charchatadi. Shubha uyg‘otadi. O‘shanda faqat bitta narsa sizni ushlab turadi — intizom.

### **Motivatsiya — bu shamol. Intizom esa ustun**

Motivatsiya vaqtinchalik. Biror video ko‘rasiz, kimdandir ilhomlanasiz va birdaniga kuchli bo‘lib ketgandek tuyulasiz. Ammo bu kuch bir necha kun yoki hatto bir necha soat ichida so‘nadi. Intizom esa ichki mustahkamlikdir. U sizni ertalab 6:00 da uyg‘otadi, zalga olib boradi, kitob varaqlashga undaydi — hatto hech nima qilgingiz kelmayotgan paytda ham.

### **“Yurakdan istayman” deyish yetarli emas**

Ko‘pchilikda istak bor. Orzular bor. Ammo natija — bu faqat orzular emas. Ular ortida odatlar, takrorlar, qat’iyat va eng muhimi, zerikkan paytda ham davom etish yotadi. O‘zini kuchli deb bilgan odamlar — aslida zerikishga bardosh bera olganlar.

### **Qanday qilib motivatsiyaga suyanib qolmaymiz?**

#### **1. Ilhom o‘rniga tizim kerak.**

Motivatsiya bo‘lmasa, harakat to‘xtaydi. Ammo tizim — sizda kuch bo‘lmasa ham ishlaydi. O‘zingizga odat qo‘ygan bo‘lsangiz, siz uni istamasangiz ham bajarasiz.

#### **2. Zerikishni rejalashtiring.**

Zerikish — dushman emas, u mashg‘ulotlarning tabiiy bosqichi. Uni boshqarishni o‘rganing, undan qochmang.

#### **3. Maqsad emas, yo‘lni seving.**

Faqat natijani emas, har bir qadamni sevishni o‘rganing. Har bir kun — kichik yutuq.

### **Asl kuch — ichki ixtiyor**

Buyuk psixolog **Viktor Frankl** aytganidek, insonni og‘ir sinovlardan olib o‘tuvchi yagona kuch — bu ma‘no. Siz qilayotgan ishingizga ichki ma‘no bera olsangiz, intizom kuchayadi. Tashqi motivatsiyaga ehtiyoj qolmaydi.

**Xulosa: Yo‘lingiz yuragingiz bilan chiziladi**

Bugungi yoshlar tashqi ilhomni ko‘p izlaydi. Ammo ilhom ichimizda — u ichki tartib va qat’iyatdadir. Motivatsiya faqat boshlanish nuqtasi. G‘alabaga esa faqat intizomli yurish olib boradi.

**ОБЩЕКУЛЬТУРНОЕ ВЗАИМОДЕЙСТВИЕ И ОВЛАДЕНИЕ  
ПРОФЕССИОНАЛЬНЫМИ НАВЫКАМИ СТУДЕНТОВ  
В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ СИСТЕМЕ.**

**Джалилова Дилором Сирожиддиновна**

*старший преподаватель факультета Филологии кафедры Языка и литературы  
Шахрисабзского государственного педагогического института*

**Муитова Дурдона Мажиддиновна**

*студентка первого курса- по направлению родной язык и литература (русский)  
Шахрисабзского государственного педагогического института*

**Аннотация.** В данной статье рассматриваются основные аспекты этого феномена, включая проблемы влияния речи и культуры общения в учебной деятельности. Анализируются процессы общекультурного взаимодействия и овладения профессиональными навыками студентов в образовательной системе, а также нормы не только устной, но и письменной речи.

**Ключевые слова:** культура речи, речевые навыки, коммуникация, профессиональные навыки.

**Key words:** speech culture, speech skills, communication, professional skills.

**Annotation.** This article discusses the main aspects of this phenomenon, including the problems of the influence of speech and communication culture. The processes of general cultural interaction and mastery of professional skills of students in the educational system, as well as the norms of not only oral but also written speech are analyzed.

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada nutq madaniyatining asosiy jihatlari, jumladan nutq va muloqot madaniyatining ta'sirli muammolari ko'rib chiqiladi. Ta'lim tizimida talabalarining umumiy madaniy o'zaro ta'siri va kasbiy ko'nikmalarini egallash jarayonlari, nafaqat og'zaki, balki yozma nutq me'yorlari tahlil qilinadi.

**Kalit so'zlar:** nutq madaniyati, nutq ko'nikmalari, muloqot, kasbiy mahorat.

Современное состояние русского языка, активные процессы, происходящие в нем, широко обсуждаются общественностью. Культура речи - это такой выбор и такая организация языковых средств, которые в определённой ситуации общения при соблюдении современных языковых норм и этики общения позволяют обеспечить